NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

## 2022- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

# Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, % da**




**2020- yil**




**2021- yil**




**2022- yil**

2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YAHM**dagi ulushi **19,6** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga **20,3** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-martida **1 175** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **3,4** foizga kam demakdir.

## 2022- yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **343** ta, sanoatda **271** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **246** ta, yashash va ovqatlanishda **59** ta, qurilishda **59** ta , tashish va saqlashda **38** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

UZSTAT

## 2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da

- Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi — 97,5
- Sanoat — 6,1
- Qurilish — 79,0
- Investitsiya — 43,8
- Savdo — 81,1
- Xizmatlar — 58,5
- Eksport — 8,4
- Import — 47,3

| | |
|---|---|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 21 049 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 1 175 |

2022- yilning yanvar-martida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , % da

- Savdo — 37,9 %
- Sanoat — 17,5 %
- Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi — 13,0 %
- Qurilish — 8,4 %
- Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar — 6,7 %
- Tashish va saqlash — 3,5 %
- Axborot va aloqa — 1,2 %
- Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish — 1,3 %
- Boshqa faoliyat turlari — 10,5 %




1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

## Hududlar bo‘yicha 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo‘yicha yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## 2022- yil yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da

2022- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Navoiy shahri– 17,5 %, Karmana tumani – 14,4 %, Qiziltepa tumani - 14,1 %, Navbahor tumani– 11,8 %, Xatirchi tumani – 11,4 %, Zarafshon shahri – 8,2 %, Nurota tumani - 6,6 % hissalariga to‘g‘ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Yanvar-martda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




Ma'lumot uchun: 2022- yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

**Savdoda**
**343 ta**

**Sanoatda**
**271 ta**

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida**
**246 ta**

**Qurilishda**
**59 ta**

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yil 1-aprel holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 20,3 birlikni tashkil etdi.

**Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1-aprel holatiga ko‘ra***




**2022- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)***




2022- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Navoiy shahrida va Tomdi tumanida 31,0 birlik, G’ozg‘on shahrida 29,1 birlik, Karmana tumanida 25,8 birlik, Konimex tumanida 21,0 birlik, Uchquduq tumanida 20,5 birlikni tashkil etgan.

** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Navoiy shahrida va Tomdi tumanida 31,0 birlik, G’ozg‘on shahrida **29,1** birlik, Karmana tumanida **25,8** birlik, Karmana tumanida 21,**0** birlik, Uchquduq tumanida 20,5 birlik, Navbahor tumanida **19,1** birlik, Zarafshon shahrida **18,2** birlik, Qiziltepa tumanida esa **18,0** birlikni tashkil etdi.

**Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra***

**Eng yuqori ko‘rsatkich**
**Navoiy shashri- 31,0 birlik.**

**O‘rtacha ko‘rsatkich**
**Uchquduq tumani - 20,5 birlik.**

**Past ko‘rsatkich**
**Xatirchi tumani - 12,3birlik.**

**2022- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda ***




* *Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 10,3 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 8,4 % ini tashkil etdi.



**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi**




**2022- yilnig yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**




2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Konimex, Nurota va Tomdi tumanlariida – 100,0 %, Uchquduq tumanida – 99,2 %, Zarafshon shahrida – 82,6 %, G’ozg‘on shahrida – 54,8 %, Xatirchi tumanida – 27,2 %, Qiziltepa tumanida – 24,2 %, Karmana tumanida – 21,6 % va Navbahor tumanida -8,7 % ni, eng past ko‘rsatkich Navoiy shahrida – 3,5 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **67,3** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **47,3** % ini tashkil etdi.




**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi**



2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi G’ozg‘on shahrida, Nurota, Tomdi va Uchquduq tumanlarida– 100,0 %, Konimex tumanida – 99,8 %, Xatirchi tumanida – 87,3%, Qiziltepa tumanida – 79,9 %, Zarafshon shahrida 54,0 % ni tashkil etdi. Eng past ko‘rsatkich Karmana tumanida – 31,0 % ni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati

**2022- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 233,7** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumanida (344,2 mlrd. so‘m), Navoiy shahrida (322,8 mlrd. so‘m), Qiziltepa tumanida (114,1 mlrd. so‘m), Xatirchi tumanida (108,4 mlrd. so‘m) va Zarafshon shahrida (82,0 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi. Tomdi tumanida (8,5 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati






Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **6,1** % ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushini eng yuqori ulushini Konimex, Nurota, Tomdi, Uchquduq va Xatirchi tumanlarida (100,0 %), Zarafshon shahri (98,5 %), G'ozg'on shahri (80,0 %), Qiziltepa tumani (41,1 %), Navbahor tumani (38,3 %), Karmana tumani (16,5 %) tashkil etdi. Navoiy shahrida (1,9 % ) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi**

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **1 834,3** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **81,1** % ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **104,4** % ni tashkil qildi.

**2022- yilning yanvar- martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati**

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (**391,3** mlrd. so‘m), Karmana (**364,5** mlrd. so‘m), Qiziltepa (**247,7** mlrd. so‘m), Xatirchi (**242,7** mlrd. so‘m), Zarafshon shahri (**205,9** mlrd. so‘m), va Navbahor (**104,5** mlrd. so‘m) shahar va tumanlar hissasiga to‘g‘ri keldi.






# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **840,6** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **76,5** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **108,6** % ni tashkil qildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Zarafshon shahri (226,7 mlrd. so‘m), Qiziltepa (167,6 mlrd. so‘m), Navoiy (135,9 mlrd. so‘m), Karmana (97,5 mlrd. so‘m), Xatirchi (71,5 mlrd. so‘m), Navbahor (56,8 mlrd. so‘m) hamda Nurota (50,7 mlrd. so‘m) shahar va tumanlarda qayd etildi.

**2022- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati



**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi**




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 135,8** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **58,5** % ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **113,1**% ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Navoiy shahri (248,3 mlrd. so‘m), Zarafshon (178,0 mlrd. so‘m), Xatirchi (154,0 mlrd. so‘m), Karmana (148,5 mlrd. so‘m), Qiziltepa (130,6 mlrd. so‘m), Navbahor (91,4mlrd. so‘m) va Nurota (71,3 mlrd. so‘m) shahar va tumanlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati**



# 2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko‘rsatkichlari

**2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:**



Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo‘lovchi tashishda



Yo‘lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 4,5 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 101,2 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 32,6 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 101,6 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 87,3 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 100,9 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 87,6 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 103,3 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada **932** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 406 (43,6%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 494 (53,0%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholandi. Qolgan 32 (3,4%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholandi.

**2022- yil I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**






Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 42,9 % (400 ta), xizmatlar sohasida – 25,5 % (238 ta), sanoatda – 14,2 % (132 ta), qurilishda – 8,7 % (81 ta) , qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 8,7 % (81 ta) ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yil I chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy shahri (227 ta), Karmana (145 ta), Qiziltepa (132 ta), Xatirchi (110 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yil I chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

### 2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




### 2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig yaqin 3 oydagi oʻzgarishlar istiqboli boʻyicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning I choragida oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi savdoda 45,5 % ni, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 44,4 % ni, xizmatlar sohasida 40,4 % tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng koʻp ulushi qishloq, sanoatda – 58,0 % ni, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – 55,6 % ni, xizmatlar sohasida 55,0 % ni tashkil etdi.

2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig **yaqin 3 oydagi oʻzgarishlar istiqboli** boʻyicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi sanoatda 53,0 % ni, savdoda 48,8 % ni, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 48,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi oʻzgarishlar istiqboli** boʻyicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng koʻp ulushi qurilishda 53,1 % ni, xizmatlar sohasida 52,1% ni, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – 51,9% ni, savdoda 49,5 % ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2022- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

| | O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar | | |
|---|---|---|---|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 33,0 | 63,5 | 3,5 |
| Band bo'lganlar soni | 17,3 | 80,8 | 1,9 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 21,8 | 75,2 | 3,0 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari | 21,6 | 74,7 | 3,7 |
| Raqobat muhiti* | 29,2 | 69,2 | 1,6 |

| | Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli | | |
|---|---|---|---|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 38,7 | 59,2 | 2,1 |
| Band bo'lganlar soni | 25,9 | 72,9 | 1,2 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 26,0 | 70,6 | 3,4 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari | 26,0 | 69,7 | 4,3 |
| Raqobat muhiti* | 32,5 | 65,2 | 2,3 |

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2022- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da




## 2022- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da

